kiritib, quyidagi lemmani hosil qilamiz.

Lemma 3.1.1. *Har bir σ_b konfiguratsiya uchun quyidagiga egamiz:*

$$U(\sigma_b) \in \{U_{-(k+1)}, \dots, U_{-0}, U_{+0}, \dots, U_{+(k+1)}\},$$

$$\text{bunda } U_{\pm i} = \pm \left(\alpha + \left(i - \frac{k+1}{2} \right) J \right), i = \overline{0, k+1}.$$

Ta'rif 3.1.1. Agar $\forall b \in M$ uchun $U(\varphi_b) = \min \{U_{\pm i} : i = 0, 1, \dots, k+1\}$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda φ konfiguratsiya H gamiltonianga nisbatan asosiy holat deyiladi.

Har bir $m = -(k+1), \dots, -1, -0, +0, +1, \dots, +(k+1)$ da $U_m(\varphi_b, (J, \alpha))$ energiya eng kichik bo'ladigan to'plamni A_m orqali belgilaymiz:

$$A_m = \{(J, \alpha) : U_m(\sigma_b) \leq U_{\pm i}, i = 0, 1, \dots, k+1\}.$$

Endi ularning har birini topamiz:

$$A_{\pm(k+1)} = \{(J, \alpha) : \pm J \leq 0, \pm \alpha \leq 0\},$$

$$A_{\pm j} = \{(J, \alpha) : J = 0, \pm \alpha \leq 0\}, \text{ bunda } j = \overline{1, k},$$

$$A_{\pm 0} = \{(J, \alpha) : \pm J \geq 0, \pm \alpha \leq 0\}.$$

Yuqoridagilardan foydalanib, quyidagi teoremani isbotlash qiyin emas.

Teorema 3.1.1. $k \geq 1$ tartibli Keli daraxtida, σ_b konfiguratsiya energiyasini

$$U(\sigma_b) = \frac{1}{2} J \sum_{\substack{\langle x, c_b \rangle : \\ x \in \omega_b}} \sigma(x) \sigma(c_b) + \alpha \sigma(c_b) \text{ ko'rinishda aniqlaganimizda, } \alpha \neq 0 \text{ tashqi}$$

magnit maydonli oddiy Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar translatsion-invariant bo'ladi.

3.2. Tashqi magnit maydonli o'zaro ta'sir radiusi 2ga teng bo'lgan

Izing modeli uchun kuchsiz davriy asosiy holatlar

Tashqi magnit maydonli o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan Izing modeli quyidagi Gamiltonian orqali beriladi:

$$H(\sigma) = J_1 \sum_{\langle x, y \rangle \in L} \sigma(x) \sigma(y) + J_2 \sum_{\substack{\langle \langle x, y \rangle \rangle : \\ x, y \in V}} \sigma(x) \sigma(y) + \alpha \sum_{x \in V} \sigma(x),$$

bunda $J_1, J_2, \alpha \in R$, α – tashqi magnit maydon.

σ_b konfiguratsiya energiyasini

$$U(\sigma_b) = \frac{1}{2} J_1 \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in b}} \sigma(x)\sigma(y) + J_2 \sum_{\substack{\langle\langle x, y \rangle\rangle: \\ x, y \in b}} \sigma(x)\sigma(y) + \alpha \sigma(c_b)$$

ko'rinishda aniqlab, quyidagini hosil qilamiz.

Lemma 3.2.1. *Har bir σ_b konfiguratsiya uchun quyidagiga ega bo'lamiz:*

$$U(\sigma_b) \in \{U_{-(k+1)}, \dots, U_{-0}, U_{+0}, \dots, U_{+(k+1)}\},$$

$$\text{bunda } U_{\pm i} = \left(\frac{k+1}{2} - i \right) J_1 + \left(\frac{k(k+1)}{2} + 2i(i-k-1) \right) J_2 \pm \alpha, \quad i = \overline{0, k+1}.$$

Har bir $m = -(k+1), \dots, -1, -0, +0, +1, \dots, +(k+1)$ da $U_m(\varphi_b, (J_1, J_2, \alpha))$ energiya eng kichik bo'ladigan to'plamni A_m orqali belgilaymiz:

$$A_m = \{(J, \alpha) : U_m(\sigma_b) \leq U_{\pm i}, i = \overline{0, k+1}\}.$$

A_m larning har birini ko'rinishini bilgan holda, osongina quyidagi teorema kelamiz:

Teorema 3.2.1. $k \geq 1$ tartibli Keli daraxtida $\alpha \neq 0$ tashqi magnit maydonli o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan Izing modeli uchun (kiritilgan σ_b konfiguratsiya energiyasi bo'yicha) barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar translatsion-invariant bo'ladi.

Tashqi magnit maydon nolga teng bo'lgan holatda o'zaro ta'sir radiusi 2ga teng bo'lgan Izing modeli uchun [19] ishda kuchsiz davriy asosiy holatlar topilgan.

3.3. Bir jinsli bo'lmagan oddiy Izing modeli uchun kuchsiz davriy asosiy holatlar

Bir jinsli bo'lmagan oddiy Izing modeli gamiltoniani quyidagi ko'rinishga ega:

$$H(\sigma) = \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in V}} J_{xy} \sigma(x) \sigma(y),$$

bunda $J_{xy} \in R$.

J_{xy} ning qiymatini quyidagicha olaylik:

$$J_{xy} = \begin{cases} J_1, & \text{agar } \sigma(x) = \sigma(y) \text{ bo'lsa,} \\ J_2 (J_2 \neq J_1), & \text{agar } \sigma(x) \neq \sigma(y) \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

σ_b konfiguratsiya energiyasini quyidagicha aniqlaylik:

$$U(\sigma_b) = \frac{1}{2} J_1 \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) = \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y) + \frac{1}{2} J_2 \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) \neq \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y),$$

$$J = (J_1, J_2) \in R^2.$$

Quyidagini isbotlash qiyin emas.

Lemma 3.3.1. *Har bir σ_b konfiguratsiya uchun quyidagiga egamiz:*

$$U(\sigma_b) \in \{U_1, U_2, \dots, U_{k+2}\},$$

$$\text{bunda } U_{i+1} = \frac{k+1-i}{2} J_1 - \frac{i}{2} J_2, \quad i = \overline{0, k+1}.$$

Ta'rif 3.3.1. *Agar $\forall b \in M$ uchun $U(\varphi_b) = \min \{U_1, U_2, \dots, U_{k+2}\}$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda φ konfiguratsiya H gamiltonianga nisbatan asosiy holat deyiladi.*

Har bir $m = 1, 2, \dots, k+2$ da $U_m(\varphi_b, J)$ energiya eng kichik bo'ladigan to'plamni A_m orqali belgilaymiz, ya'ni

$$A_m = \{J \in R^2 : U_m(J) = \min \{U_1(J), U_2(J), \dots, U_{k+2}(J)\}\}.$$

Endi ularning har birini topamiz:

$$A_1 = \{J \in R^2 : J_1 + J_2 \leq 0\},$$

$$A_i = \{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}, \quad i = \overline{2, k+1},$$

$$A_{k+2} = \{J \in R^2 : J_1 + J_2 \geq 0\} \text{ va } \bigcap_{m=1}^{k+2} A_m = R^2.$$

$\bigcap_{m=1}^{k+2} A_m = \{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}$. Bundan quyidagi teorema ega bo'lamiz.

Teorema 3.3.1. *k – tartibli Keli daraxtida bir jinsli bo'lmagan Izing modeli uchun ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiya $\{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}$ to'plamda kuchsiz davriy asosiy holat bo'ladi.*

Isbot. Keli daraxti ustida ham translatsion-invariant, ham davriy bo'lmagan ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiyani qarasak, shunday $b^* \in M$ shar topiladiki, $U(b^*) \neq U_1$, $U(b^*) \neq U_{k+2}$. Bundan ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiya $\{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}$ to'plamda kuchsiz davriy asosiy holat bo'lishi kelib chiqadi.

Teorema isbotlandi.

Ko'rish osonki, $\{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}$ to'plamda faqatgina kuchsiz davriy konfiguratsiya emas, balki ixtiyoriy konfiguratsiya asosiy holat bo'ladi.

3.4. Bir jinsli bo'lmagan o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan Izing modeli uchun kuchsiz davriy asosiy holatlar

O'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan bir jinsli bo'lmagan Izing modeli gamiltoniani quyidagicha beriladi:

$$H(\sigma) = \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in V}} J_{xy}^1 \sigma(x) \sigma(y) + \sum_{\substack{\langle\langle x, y \rangle\rangle: \\ x, y \in V}} J_{xy}^2 \sigma(x) \sigma(y),$$

bunda $J_{xy}^1, J_{xy}^2 \in R$.

J_{xy}^1 va J_{xy}^2 larning qiymatlarini quyidagicha aniqlaylik:

$$J_{xy}^1 = \begin{cases} J_1, & \text{agar } \sigma(x) = \sigma(y) \text{ bo'lsa,} \\ J_2 (J_2 \neq J_1), & \text{agar } \sigma(x) \neq \sigma(y) \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

$$J_{xy}^2 = \begin{cases} J_3, & \text{agar } \sigma(x) = \sigma(y) \text{ bo'lsa,} \\ J_4 (J_4 \neq J_3), & \text{agar } \sigma(x) \neq \sigma(y) \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

σ_b konfiguratsiya energiyasini quyidagicha aniqlaylik:

$$\begin{aligned}
U(\sigma_b) = & \frac{1}{2} J_1 \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) = \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y) + \frac{1}{2} J_2 \sum_{\substack{\langle x, y \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) \neq \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y) + \\
& + J_3 \sum_{\substack{\langle \langle x, y \rangle \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) = \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y) + J_4 \sum_{\substack{\langle \langle x, y \rangle \rangle: \\ x, y \in b, \\ \sigma(x) \neq \sigma(y)}} \sigma(x) \sigma(y)
\end{aligned}$$

bunda $J = (J_1, J_2, J_3, J_4) \in R^4$.

Quyidagini isbotlash qiyin emas.

Lemma 3.4.1. *Har bir σ_b konfiguratsiya uchun quyidagiga egamiz:*

$$U(\sigma_b) \in \{U_1, U_2, \dots, U_{k+2}\},$$

bunda

$$U_{i+1} = \frac{k+1-i}{2} J_1 - \frac{i}{2} J_2 + \left(\frac{k(k+1)}{2} - i(k+1-i) \right) J_3 - i(k+1-i) J_4, \quad i = \overline{0, k+1}.$$

Ta'rif 3.4.1. *Agar $\forall b \in M$ uchun $U(\varphi_b) = \min \{U_1, U_2, \dots, U_{k+2}\}$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda φ konfiguratsiya H gamiltonianga nisbatan asosiy holat deyiladi.*

Har bir $m = 1, 2, \dots, k+2$ da $U_m(\varphi_b, J)$ energiya eng kichik bo'ladigan to'plamni A_m orqali belgilaymiz:

$$A_m = \{J \in R^4 : U_m(J) = \min \{U_1(J), U_2(J), \dots, U_{k+2}(J)\}\}.$$

Endi ularning har birini topamiz:

$$\begin{aligned}
A_1 &= \{J \in R^4 : J_1 + J_2 \leq 0, J_1 + J_2 + 2k(J_3 + J_4) \leq 0\}, \\
A_i &= \{J \in R^4 : J_3 + J_4 \geq 0, 2(2i - k - 4)(J_3 + J_4) \leq J_1 + J_2 \leq 2(2i - k - 2)(J_3 + J_4)\}, \\
& \quad i = \overline{2, k+1},
\end{aligned}$$

$$A_{k+2} = \{J \in R^4 : J_1 + J_2 \geq 0, J_1 + J_2 - 2k(J_3 + J_4) \geq 0\} \quad \text{va} \quad \bigcap_{m=1}^{k+2} A_m = R^4.$$

$\bigcap_{m=1}^{k+2} A_m = \{J \in R^4 : J_1 + J_2 = 0, J_3 + J_4 = 0\}$ Bundan quyidagi teorema ega

bo'lamiz.

Teorema 3.4.1. *k – tartibli Keli daraxtida o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan bir jinsli bo'lmagan Izing modeli uchun ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiya $\{J \in R^4 : J_1 + J_2 = 0, J_3 + J_4 = 0\}$ to'plamda kuchsiz davriy asosiy holat bo'ladi.*

Isbot. Keli daraxti ustida ham translatsion-invariant, ham davriy bo'lmagan ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiyani qarasak, shunday $b^* \in M$ shar topiladiki, $U(b^*) \neq U_1, U(b^*) \neq U_{k+2}$. Bundan ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiya $\{J \in R^4 : J_1 + J_2 = 0, J_3 + J_4 = 0\}$ to'plamda kuchsiz davriy asosiy holat bo'lishi kelib chiqadi.

Teorema isbotlandi.

Ko'rish osonki, $\{J \in R^4 : J_1 + J_2 = 0, J_3 + J_4 = 0\}$ to'plamda faqatgina kuchsiz davriy konfiguratsiya emas, balki ixtiyoriy konfiguratsiya asosiy holat bo'ladi.

III bob bo'yicha xulosa

III bobda Keli daraxtida tashqi magnit maydonli va bir jinsli bo'lmagan Izing modellari qaraladi.

3.1 qismda α tashqi magnit maydonli oddiy Izing modeli uchun birlik shardagi konfiguratsiya energiyasi ko'rinishi kiritilgan va shu kiritilgan energiya bo'yicha $\alpha \neq 0$ tashqi magnit maydonli oddiy Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar translatsion-invariant bo'lishi isbotlangan.

3.2 qismda α tashqi magnit maydonli o'zaro ta'sir radiusi 2ga teng bo'lgan Izing modeli uchun birlik shardagi konfiguratsiya energiyasi ko'rinishi kiritilgan va shu kiritilgan energiya bo'yicha $\alpha \neq 0$ tashqi magnit maydonli o'zaro ta'sir radiusi 2ga teng bo'lgan Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar translatsion-invariant bo'lishi isbotlangan.

3.3 qismda bir jinsli bo'lmagan oddiy Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy konfiguratsiyalar $\{J \in R^2 : J_1 + J_2 = 0\}$ to'plamda asosiy holat bo'lishi isbotlangan.

3.4 qismda bir jinsli bo'lmagan o'zaro ta'sir radiusi 2ga teng bo'lgan Izing modeli uchun barcha kuchsiz davriy konfiguratsiyalar $\{J \in R^4 : J_1 + J_2 = 0, J_3 + J_4 = 0\}$ to'plamda asosiy holat bo'lishi isbotlangan.

IV BOB. KUCHSIZ DAVRIY GIBBS O'LCHOVLARI

4.1. Potts modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari

Biz spin qiymatlarni $\Phi = \{1, 2, \dots, q\}$, $q \geq 2$ to'plamdan qabul qiladigan modelni qaraymiz. U holda V da σ konfiguratsiya $x \in V \rightarrow \sigma(x) \in \Phi$ funksiya kabi aniqlanadi. Barcha konfiguratsiyalar to'plami $\Omega = \Phi^V$ dan iborat.

Potts modelining gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H(\sigma) = -J \sum_{\langle x, y \rangle \in L} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)} \quad (4.1.1)$$

bunda $J \in \mathbb{R}$, $\langle x, y \rangle$ – yaqin qo'shnilar va δ_{ij} – Kroneker simvoli, ya'ni

$$\delta_{ij} = \begin{cases} 0, & \text{agar } i \neq j \text{ bo'lsa,} \\ 1, & \text{agar } i = j \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

V_n hajmdagi ehtimollik o'lchovini

$$\mu_n(\sigma_n) = \frac{e^{-\beta H(\sigma_n) + \sum_{x \in W_n} h_{\sigma(x), x}}}{Z_n} \quad (4.1.2)$$

kabi aniqlaymiz, bunda $\beta = \frac{1}{T}$, $T > 0$ – temperatura, $\frac{1}{Z_n}$ – normalovchi

ko'paytuvchi, $\{h_x = (h_{1,x}, \dots, h_{q,x}) \in \mathbb{R}^q, x \in V\}$ – vektorlar to'plami va

$$H_n(\sigma_n) = -J \sum_{\langle x, y \rangle \in L_n} \delta_{\sigma(x)\sigma(y)}.$$

Agar barcha $n \geq 1$ lar va $\sigma_{n-1} \in \Phi^{V_{n-1}}$ uchun

$$\sum_{\omega_n \in \Phi^{W_n}} \mu_n(\sigma_{n-1} \cup \omega_n) = \mu_{n-1}(\sigma_{n-1}) \quad (4.1.3)$$

tenglik bajarilsa, (4.1.2) ehtimollik taqsimoti muvofiqlashgan deyiladi. Bu holda barcha n va $\sigma_n \in \Phi^{V_n}$ uchun Φ^V da $\mu(\{\sigma|_{V_n} = \sigma_n\}) = \mu_n(\sigma_n)$ bo'ladigan yagona μ o'lchov mavjud.

Quyidagi teorema h_x ga, $\mu_n(\sigma_n)$ ni muvofiqlashgan bo'lishini ta'minlovchi, shartni tasvirlaydi.

Teorema 4.1.1. [22] Agar ixtiyoriy $x \in V$ uchun quyidagi

$$h_x = \sum_{y \in S(x)} F(h_y, \theta) \quad (4.1.4)$$

tenglik o'rinli bo'lsa, faqat va faqat shu holda, (4.1.2)da $\mu_n(\sigma_n), n=1,2,\dots$

ehtimollik taqsimoti muvofiqlashgan bo'ladi, bunda

$F: h = (h_1, \dots, h_{q-1}) \in R^{q-1} \rightarrow F(h, \theta) = (F_1, \dots, F_{q-1}) \in R^{q-1}$ quyidagicha aniqlanadi:

$$F_i = \ln \left(\frac{(\theta - 1)e^{h_i} + \sum_{j=1}^{q-1} e^{h_j} + 1}{\theta + \sum_{j=1}^{q-1} e^{h_j}} \right)$$

va $\theta = e^{J\beta}$, $S(x)$ – x nuqtaning bevosita avlodlari to'plami.

$G_k / G_k^* = \{H_1, \dots, H_r\}$ faktor grupp bo'lsin, bunda $G_k^* - r \geq 1$ indeksli normal bo'luvchi.

Ta'rif 4.1.1. Agar $\forall x \in G_k, y \in G_k^*$ lar uchun $h_{yx} = h_x$ o'rinli bo'lsa, $h = \{h_x, x \in G_k\}$ vektorlar to'plami G_k^* – davriy deyiladi. G_k – davriy to'plam translatsion-invariant deyiladi.

Ta'rif 4.1.2. Agar $\forall x \in G_k$ uchun $x_{\downarrow} \in H_i, x \in H_j$ bo'lganda $h_x = h_{ij}$ o'rinli bo'lsa, $h = \{h_x, x \in G_k\}$ vektorlar to'plami G_k^* – kuchsiz davriy deyiladi.

Ta'rif 4.1.3. Agar μ o'lchov G_k^* – davriy (kuchsiz davriy) h vektorlar to'plamiga mos kelsa, uni G_k^* – davriy (kuchsiz davriy) deyiladi.

$$A \subset \{1, 2, \dots, k+1\} \text{ bo'lsin. } H_A = \left\{ x \in G_k : \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{juft} \right\} \text{ grupp } G_k \text{ da}$$

indeksi 2 ga teng bo'lgan normal bo'luvchi bo'ladi. $G_k^{(2)} = \{x \in G_k : |x| - \text{juft}\}$ va

$G_k^{(4)} = H_A \cap G_k^{(2)}$ bo'lsin, bunda $w_j(x)$ – x so'zdagi a_j lar soni. Ravshanki, $G_k^{(4)}$ grupp G_k da indeksi 4 ga teng bo'lgan normal bo'luvchi bo'ladi.

Indeks 2 ga teng bo'lgan hol. $G_k / H_A = \{H_A, G_k \setminus H_A\}$ faktor gruppani qaraymiz. Qulaylik uchun $H_A = H_0$, $G_k \setminus H_A = H_1$ belgilab olamiz. H_A –kuchsiz davriy $h = \{h_x \in R^{q-1} : x \in G_k\}$ vektorlar to'plami quyidagi ko'rinishga ega:

$$h_x = \begin{cases} h_1, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_0, \ x \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_2, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_0, \ x \in H_1 \text{ bo'lsa,} \\ h_3, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_1, \ x \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_4, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_1, \ x \in H_1 \text{ bo'lsa,} \end{cases} \quad (4.1.5)$$

bu yerda $h_i = (h_{i1}, h_{i2}, \dots, h_{i,q-1})$, $i = 1, 2, 3, 4$. (4.1.4) muvofiqlashish shartiga asosan:

$$\begin{cases} h_1 = (k - |A|)F(h_1, \theta) + |A|F(h_2, \theta), \\ h_2 = (|A| - 1)F(h_3, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_4, \theta), \\ h_3 = (|A| - 1)F(h_2, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_1, \theta), \\ h_4 = (k - |A|)F(h_4, \theta) + |A|F(h_3, \theta). \end{cases} \quad (4.1.6)$$

Belgilash kiritamiz: $e^{h_{ij}} = z_{ij}$, $i = 1, 2, 3, 4$, $j = 1, 2, \dots, q - 1$, U holda (4.1.6)

sistemani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\left\{ \begin{aligned} z_{1j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|}, \\ z_{2j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z_{3j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z_{4j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|}, \end{aligned} \right. \quad (4.1.7)$$

bunda $j = 1, 2, \dots, q-1$.

Quyidagicha aniqlangan $W : R^{4q-4} \rightarrow R^{4q-4}$ akslantirishni qaraymiz:

$$\left\{ \begin{aligned} z'_{1j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|}, \\ z'_{2j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z'_{3j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z'_{4j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|}, \end{aligned} \right. \quad (4.1.8)$$

bunda $j = 1, 2, \dots, q-1$.

(4.1.7) sistema $z = W(z)$ tenglamalar sistemasiga teng kuchli.

Lemma 4.1.1. W akslantirish quyidagi invariant to'plamlarga ega:

$$\begin{aligned} I_1 &= \{z \in R^{4q-4} : z_{11} = \dots = z_{1q-1} = z_{21} = \dots = z_{2q-1} = z_{31} = \dots = z_{3q-1} = z_{41} = \dots = z_{4q-1}\}, \\ I_2 &= \{z \in R^{4q-4} : z_{11} = \dots = z_{1q-1} = z_{41} = \dots = z_{4q-1}, \quad z_{21} = \dots = z_{2q-1} = z_{31} = \dots = z_{3q-1}\}, \\ I_3 &= \{z \in R^{4q-4} : z_{1j} = z_{2j} = z_{3j} = z_{4j}, \quad j = 1, 2, \dots, q-1\}, \\ I_4 &= \{z \in R^{4q-4} : z_{1j} = z_{4j}, \quad z_{2j} = z_{3j}, \quad j = 1, 2, \dots, q-1\}. \end{aligned}$$

Isbot. W akslantirish uchun I_4 to'plamni invariant ekanligini isbotlaymiz.

I_1, I_2, I_3 to'plamlarning ham invariantligi shundan kelib chiqadi.

$$\forall z^* = (z_{11}, \dots, z_{1q-1}, z_{21}, \dots, z_{2q-1}, z_{31}, \dots, z_{3q-1}, z_{41}, \dots, z_{4q-1}) \in I_4 \text{ uchun}$$

$$\left\{ \begin{aligned} z'_{1j} &= \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + \theta} \right)^{|A|}, \\ z'_{2j} &= \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z'_{3j} &= \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\ z'_{4j} &= \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i}^* + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j}^* + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i}^* + \theta} \right)^{|A|}, \end{aligned} \right.$$

$$j = 1, 2, \dots, q-1,$$

$$\text{ya'ni } z'_{1j} = z'_{4j}, \quad z'_{2j} = z'_{3j}, \quad j = 1, 2, \dots, q-1, \Rightarrow z' = W(z^*) \in I_4.$$

Lemma 4.1.1 isbotlandi.

Quyidagi teoremani isbotlash qiyin emas.

Teorema 4.1.2. 1) I_1, I_2, I_3 to'plamlarda barcha H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari translatsion-invariant bo'ladi;

2) $k=2$, $|A|=1,2$ da shunday $\theta_{kr}=1+2\sqrt{q-1}$ kritik qiymat mavjudki, $\theta < \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 1 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi, $\theta = \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 2 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi, $\theta > \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 3 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi mavjud;

3) $k=3$, $q=3$, $|A|=1,2,3$ da shunday $\theta_{kr}=-2+\sqrt{9+6\sqrt{3}}$ kritik qiymat mavjudki, $\theta < \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 1 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi, $\theta = \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 2 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi, $\theta > \theta_{kr}$ bo'lganda kamida 3 ta H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi mavjud;

(4.1.7) sistemani I_3 to'plamda qarasak, u quyidagi ko'rinishga keladi:

$$z_{1j} = \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^k, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$$\sqrt[k]{z_{1j}} = \frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta}, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$$\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} (\sqrt[k]{z_{1j}} - 1) + \theta \sqrt[k]{z_{1j}} = (\theta-1)z_{1j} + 1, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$$\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} (\sqrt[k]{z_{1j}} - 1) - \theta z_{1j} + \theta \sqrt[k]{z_{1j}} = z_{1j} - 1 = 0, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$$\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} (\sqrt[k]{z_{1j}} - 1) - \theta \sqrt[k]{z_{1j}} (\sqrt[k]{z_{1j}^{k-1}} - 1) + (\sqrt[k]{z_{1j}} - 1) = 0, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$k=2$ bo'lsin. U holda oxirgi tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} (\sqrt{z_{1j}} - 1) - \theta \sqrt{z_{1j}} (\sqrt{z_{1j}} - 1) + (\sqrt{z_{1j}} - 1) = 0, \quad j=1,2,\dots,q-1.$$

$$(\sqrt{z_{1j}} - 1) \cdot \left(\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} - \theta \sqrt{z_{1j}} + 1 \right) = 0, \quad j = 1, 2, \dots, q-1.$$

Shunday qilib, $z_{1j} = 1 \quad \forall \quad z_{1j} = \left(\frac{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\theta} \right)^2 = 0, \quad j = 1, 2, \dots, q-1$ ga ega bo'lamiz.

Bundan Keli daraxtida Potts modeli uchun barcha translatsion-invariant Gibbs o'lchovlarining sonini aniqlashimiz mumkinligi kelib chiqadi.

Indeks 4 ga teng bo'lgan hol. $G_k/G_k^{(4)} = \{H_0, H_1, H_2, H_3\}$ faktor gruppani qaraymiz, bunda $H_0 = G_k^{(4)}$,

$$H_0 = \left\{ x \in G_k : |x| - \text{juft}, \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{juft} \right\},$$

$$H_1 = \left\{ x \in G_k : |x| - \text{juft}, \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{toq} \right\},$$

$$H_2 = \left\{ x \in G_k : |x| - \text{toq}, \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{juft} \right\},$$

$$H_3 = \left\{ x \in G_k : |x| - \text{toq}, \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{toq} \right\}.$$

$G_k^{(4)}$ –kuchsiz davriy $h = \{h_x \in R^{q-1} : x \in G_k\}$ vektorlar to'plami quyidagi ko'rinishga ega:

$$h_x = \begin{cases} h_1, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_0, x \in H_2 \text{ bo'lsa,} \\ h_2, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_0, x \in H_3 \text{ bo'lsa,} \\ h_3, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_1, x \in H_2 \text{ bo'lsa,} \\ h_4, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_1, x \in H_3 \text{ bo'lsa,} \\ h_5, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_2, x \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_6, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_2, x \in H_1 \text{ bo'lsa,} \\ h_7, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_3, x \in H_0 \text{ bo'lsa,} \\ h_8, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_3, x \in H_1 \text{ bo'lsa,} \end{cases} \quad (4.1.9)$$

bunda $h_i = (h_{i1}, h_{i2}, \dots, h_{iq-1})$, $i = 1, 2, \dots, 8$.

Muvofiqlashish shartiga asosan quyidagiga egamiz:

$$\begin{cases} h_1 = (k - |A|)F(h_5, \theta) + |A|F(h_6, \theta), \\ h_2 = (|A| - 1)F(h_7, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_8, \theta), \\ h_3 = (|A| - 1)F(h_6, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_5, \theta), \\ h_4 = (k - |A|)F(h_8, \theta) + |A|F(h_7, \theta), \\ h_5 = (k - |A|)F(h_1, \theta) + |A|F(h_2, \theta), \\ h_6 = (|A| - 1)F(h_3, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_4, \theta), \\ h_7 = (|A| - 1)F(h_2, \theta) + (k + 1 - |A|)F(h_1, \theta), \\ h_8 = (k - |A|)F(h_4, \theta) + |A|F(h_3, \theta). \end{cases} \quad (4.1.10)$$

$e^{h_i} = z_i$, $e^{h_{ij}} = z_{ij}$, $i = 1, 2, \dots, 8$, $j = 1, 2, \dots, q - 1$, kabi belgilash kiritsak, tenglamalar

sistemi quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\left\{ \begin{array}{l}
z_{1j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{5j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{6j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z_{2j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{7j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{8j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z_{3j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{6j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{5j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z_{4j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{8j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{7j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z_{5j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z_{6j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z_{7j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z_{8j} = \left(\frac{(\theta - 1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta - 1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|},
\end{array} \right.$$

$$j = 1, 2, \dots, q-1.$$

$$(4.1.11)$$

Quyidagicha aniqlangan $W: R^{8q-8} \rightarrow R^{8q-8}$ akslantirishni qaraymiz:

$$\left\{ \begin{aligned}
z'_{1j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{5j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{6j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z'_{2j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{7j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{8j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z'_{3j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{6j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{6i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{5j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{5i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z'_{4j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{8j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{8i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{7j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{7i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z'_{5j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|}, \\
z'_{6j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z'_{7j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{2j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{2i} + \theta} \right)^{|A|-1} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{1j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{1i} + \theta} \right)^{k+1-|A|}, \\
z'_{8j} &= \left(\frac{(\theta-1)z_{4j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{4i} + \theta} \right)^{k-|A|} \cdot \left(\frac{(\theta-1)z_{3j} + \sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + 1}{\sum_{i=1}^{q-1} z_{3i} + \theta} \right)^{|A|},
\end{aligned} \right.$$

$$j = 1, 2, \dots, q-1. \quad (4.1.12)$$

(4.1.11) sistema $z = W(z)$ tenglamalar sistemasiga teng kuchli.

Quyidagi lemmani ham lemma 4.1.1 singari osongina isbotlashimiz mumkin.

Lemma 4.1.2. W akslantirish quyidagi invariant to'plamlarga ega:

$$\begin{aligned} I_1 &= \{z \in R^{8q-8} : z_1 = z_2 = z_3 = z_4 = z_5 = z_6 = z_7 = z_8\}, \\ I_2 &= \{z \in R^{8q-8} : z_1 = z_4 = z_5 = z_8, z_2 = z_3 = z_6 = z_7\}, \\ I_3 &= \{z \in R^{8q-8} : z_1 = z_4, z_2 = z_3, z_5 = z_8, z_6 = z_7\}, \\ I_4 &= \{z \in R^{8q-8} : z_1 = z_5, z_2 = z_6, z_3 = z_7, z_4 = z_8\}, \\ I_5 &= \{z \in R^{8q-8} : z_1 = z_8, z_2 = z_7, z_3 = z_6, z_4 = z_5\}, \end{aligned}$$

Quyidagi teoremani isbotlash qiyin emas.

Teorema 4.1.3. I_1, I_2, I_5 to'plamlarda barcha $G_k^{(4)}$ –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari bilan ustma-ust tushadi.

4.2. Tashqi maydonli Izing modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari

Biz spin qiymatlarni $\Phi = \{-1, 1\}$ to'plamdan qabul qiladigan modelni qaraymiz. U holda V da σ konfiguratsiya $x \in V \rightarrow \sigma(x) \in \Phi$ funksiya kabi aniqlanadi. Barcha konfiguratsiyalar to'plami $\Omega = \Phi^V$ dan iborat.

Tashqi maydonli Izing modelining gamiltoniani quyidagicha aniqlanadi:

$$H(\sigma) = -J \sum_{\langle x, y \rangle \in L} \sigma(x)\sigma(y) - \alpha \sum_{x \in V} \sigma(x), \quad (4.2.1)$$

bu yerda $J, \alpha \in R$, α – tashqi maydon, $\langle x, y \rangle$ – yaqin qo'shnilar.

Ma'lumki [20], tashqi maydonli Izing modeli uchun har bir limit Gibbs o'lchoviga

$$h_x = \alpha\beta + \sum_{y \in S(x)} f(h_y, \theta)$$

shartni qanoatlantiruvchi $h = \{h_x \in R : x \in G_k\}$ qiymatlar to'plamini mos qo'yish

mumkin, bunda $\theta = th(J\beta)$, $f(h, \theta) = \text{arcth}(\theta th h)$, $\beta = \frac{1}{T}$, $T > 0$ – temperatura.

$$A \subset \{1, 2, \dots, k+1\} \text{ bo'lsin. } H_A = \left\{ x \in G_k : \sum_{j \in A} w_j(x) - \text{juft} \right\} \text{ gruppaga } G_k \text{ da}$$

normal bo'luvchi bo'ladi, bunda $w_j(x) - x$ so'zdagi a_j lar soni.

$G_k / H_A = \{H_A, G_k \setminus H_A\}$ faktor gruppani qaraymiz.

H_A – kuchsiz davriy qiymatlar to'plami $h = \{h_x \in R : x \in G_k\}$ quyidagi ko'rinishga ega:

$$h_x = \begin{cases} h_1, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_A, x \in H_A \text{ bo'lsa,} \\ h_2, & \text{agar } x_{\downarrow} \in H_A, x \in G_k \setminus H_A \text{ bo'lsa,} \\ h_3, & \text{agar } x_{\downarrow} \in G_k \setminus H_A, x \in H_A \text{ bo'lsa,} \\ h_4, & \text{agar } x_{\downarrow} \in G_k \setminus H_A, x \in G_k \setminus H_A \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

Ta'rif 4.2.1. H_A – kuchsiz davriy h qiymatlar to'plamiga mos kelgan μ o'lchov

H_A – kuchsiz davriy Gibbs o'lchovi deb ataladi.

Muvofiqlashish shartiga asosan :

$$\begin{cases} h_1 = (k - |A|) f(h_1, \theta) + |A| f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \\ h_2 = (|A| - 1) f(h_3, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_4, \theta) + \alpha\beta, \\ h_3 = (|A| - 1) f(h_2, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_1, \theta) + \alpha\beta, \\ h_4 = (k - |A|) f(h_4, \theta) + |A| f(h_3, \theta) + \alpha\beta. \end{cases}$$

Quyidagi tarzda aniqlangan $W : R^4 \rightarrow R^4$ akslantirishni qaraymiz:

$$\begin{cases} h_1' = (k - |A|) f(h_1, \theta) + |A| f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \\ h_2' = (|A| - 1) f(h_3, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_4, \theta) + \alpha\beta, \\ h_3' = (|A| - 1) f(h_2, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_1, \theta) + \alpha\beta, \\ h_4' = (k - |A|) f(h_4, \theta) + |A| f(h_3, \theta) + \alpha\beta. \end{cases}$$

Tenglamalar sistemasini $h = W(h)$ ko'rinishida yozishimiz mumkin.

Lemma 4.2.1. W akslantirish quyidagi invariant to'plamlarga ega:

$$\begin{aligned} I_1 &= \{h \in R^4 : h_1 = h_2 = h_3 = h_4\}, \\ I_2 &= \{h \in R^4 : h_1 = h_4, h_2 = h_3\}. \end{aligned}$$

Teorema 4.2.1. 1) Tashqi maydonli Izing modeli uchun I_1, I_2 to'plamlarda barcha H_A – kuchsiz davriy o'lchovlar translatsion-invariant bo'ladi.

2) $J > 0$ va $|A| = k$ bo'lganda barcha H_A – kuchsiz davriy o'lchovlar translatsion-invariant bo'ladi.

Isbot.

1) Isboti ustozim M.M. Raxmatullayevning nomzodlik dissertatsiyalaridan kelib chiqadi;

2)

$$\begin{cases} h_1 = (k - |A|) f(h_1, \theta) + |A| f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \\ h_2 = (|A| - 1) f(h_3, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_4, \theta) + \alpha\beta, \\ h_3 = (|A| - 1) f(h_2, \theta) + (k + 1 - |A|) f(h_1, \theta) + \alpha\beta, \\ h_4 = (k - |A|) f(h_4, \theta) + |A| f(h_3, \theta) + \alpha\beta. \end{cases}$$

tenglamalar sistemasini $|A| = k$ shartda qaraymiz, u holda sistema quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\begin{cases} h_1 = k f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \\ h_2 = (k-1) f(h_3, \theta) + f(h_4, \theta) + \alpha\beta, \\ h_3 = (k-1) f(h_2, \theta) + f(h_1, \theta) + \alpha\beta, \\ h_4 = k f(h_3, \theta) + \alpha\beta. \end{cases}$$

bundan

$$\begin{cases} h_2 = (k-1) f(h_3, \theta) + f(k f(h_3, \theta) + \alpha\beta, \theta) + \alpha\beta, \\ h_3 = (k-1) f(h_2, \theta) + f(k f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \theta) + \alpha\beta. \end{cases}$$

$$h_2 - h_3 = (k-1)(f(h_3, \theta) - f(h_2, \theta)) + f(k f(h_3, \theta) + \alpha\beta, \theta) - f(k f(h_2, \theta) + \alpha\beta, \theta)$$

$f(h)$ funksiya $J > 0$ bo'lganda qat'iy o'suvchi ekanligidan hosil bo'lgan oxirgi sistema $J > 0$ shartda faqatgina $h_2 = h_3$ va dastlabki sistema faqatgina $h_1 = h_2 = h_3 = h_4$ yechimga ega bo'lishi kelib chiqadi.

Teorema 4.2.1 isbotlandi.

IV bob bo'yicha xulosa

IV bobda kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlarini Potts va tashqi maydonli Izing modellari uchun o'rganiladi.

4.1 qismda Potts modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari o'rganilgan. Jumladan, ma'lum shartlarda kritik qiymatlar topilgan, ba'zi shartlarda barcha H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari translatsion-invariant bo'lishi, barcha $G_k^{(4)}$ –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari bilan ustma-ust tushishi isbotlangan.

4.2 qismda tashqi maydonli Izing modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari o'rganilgan. Jumladan, ba'zi shartlarda barcha H_A –kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari translatsion-invariant bo'lishi isbotlangan.

XULOSA

Ishda o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan Potts modeli, Izing modellari uchun kuchsiz davriy asosiy holatlar hamda Potts va tashqi maydonli Izing modellari uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari o'rganilgan bo'lib, olingan asosiy natijalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Keli daraxtida o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan uch holatli Potts modeli uchun ixtiyoriy 2 va 4 indeksli normal bo'luvchilarga nisbatan barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar to'plami tasvirlangan.
- Keli daraxtida $\alpha \neq 0$ tashqi magnit maydonli oddiy va o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan Izing modellari uchun (kiritilgan birlik shardagi konfiguratsiya energiyasi bo'yicha) ixtiyoriy indeksli normal bo'luvchiga nisbatan barcha kuchsiz davriy asosiy holatlar translatsion-invariant bo'lishi isbotlangan.
- Keli daraxtida oddiy va o'zaro ta'sir radiusi 2 ga teng bo'lgan bir jinsli bo'lmagan Izing modellari uchun ixtiyoriy kuchsiz davriy konfiguratsiya kuchsiz davriy asosiy holat bo'lishi isbotlangan.
- Potts modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari o'rganilgan. Jumladan, ma'lum shartlarda kritik qiymatlar topilgan, ba'zi shartlarda barcha H_A – kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari translatsion-invariant bo'lishi, barcha $G_k^{(4)}$ – kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari H_A – kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari bilan ustma-ust tushishi isbotlangan.
- Tashqi maydonli Izing modeli uchun kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari o'rganilgan. Jumladan, ba'zi shartlarda barcha H_A – kuchsiz davriy Gibbs o'lchovlari translatsion-invariant bo'lishi isbotlangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Sog'lom bola yili” davlat dasturi to'g'risida”gi qarori.// O'z. Res. Qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 9-son, 87-modda.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Ўзбекистон. Тошкент. 1999 йил.
3. Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва кафолатлари ” Ўзбекистон. Тошкент. 1997 йил.
4. Каримов И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч” Тошкент. “Маънавият” 1997 йил.
5. Каримов И.А. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ” Тошкент. 1997 йил.
6. “Ma'rifat” gazetasi. 2014-yil
7. Розиков У.А. Структура разбиений на классы смежности группового представления дерева Кэли и их применения для описания периодических распределений Гиббса // Теор. и матем. физика, 1997, т.112, №1.-с.170-176.
8. Ганиходжаев Н.Н., Розиков У.А. Групповое представление леса Кэли и его некоторые применения. Известия РАН. - Москва, 2003-Т.67.-С.17-27.
9. Ганиходжаев Н.Н., Розиков У.А. Классы нормальных делителей конечного индекса группового представления дерева Кэли //УзМЖ.- Тошкент, 1997.-№4. –С.31-39.
10. Н. Н. Ганиходжаев, У. А. Розиков. О периодических гиббсовских распределениях модели Изинга на решетке Бете. Узматжур. 1995 №4. С.12-21.
11. Н. Н. Ганиходжаев. Групповое представление и автоморфизмы дерева Кэли. ДАН АНРУз. 1994. №6. С.3-5
12. К. Престон. Гиббсовские состояния на счетных множествах. М.Мир. 1977.
13. U. A. Rozikov. “A constructive Description of Ground States and Gibbs Measures for Ising Model with two step interactions on Cayley tree”. Journal of statistical Physics. Vol. 122. N2. 2006.

14. Синай Я.Г., Теория фазовых переходов. Строгие результаты. Наука.М.1980.
15. Блехер П.М., Ганиходжаев Н.Н. О чистых фазах модели Изинга на решетке Бете//Теория вероят. и ее примен., 1990.т.35, вып.2.-с.920-930.
16. Minlos R.A., Introduction to mathematical statistical physics. University lecture series, v.19, 2000.
17. Rozikov U.A., Suhov Yu.M. Inf. Dim. Anal.Quant.Prob. RT, 2006, V.9, N3, p.471-488.
18. Ботиров Г.И., Розиков У.А. Модель Поттса с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли: контурный метод, ТМФ, 2007, Т .153, N1,с. 86-97.
19. Розиков У.А., Рахматуллаев М.М. Слабо периодические основные состояние и мер Гиббса для модели Изинга с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли. ТМФ, 2009, Т.160, N3, с. 507-516.
20. Rozikov U. A. Gibbs measures on Cayley trees. 2010.
21. Ганиходжаев Н.Н. Групповое представление и автоморфизмы дерева Кэли. //Доклады АНРУз, 1994.-№4.-С.3-5.
22. Ганиходжаев Н.Н., Розиков У.А. Описание периодических крайних гиббсовских мер некоторых моделей на дереве Кэли. // Теор. и матем. физика, 1997.-Т.111.-№1.-С.109-117.
23. Добрушин Р.Л. Задача единственности гиббсовских случайных полей и проблема фазовых переходов. // Функ. Анал. и его прилож. – 1968. – Т. 2. – №. 4. – С. 44-57.
24. Курош А.Г. Теория групп. – М.: Наука, 1967. – 648 с.
25. Пирогов С.А., Синай Я.Г. Фазовые диаграммы классических решетчатых систем // Теор. и матем. физика, 1975. Т.25.-с.378-389 и 1976.Т.26.-с.61-76.
26. Розанова Ю.А. Марковские случайные поля. //Теория вероятн. и ее прим., 1967, т.12, №3, с.433.

27. Розиков У.А. Построение несчетного числа гиббсовских мер неоднородной модели Изинга // Теор. и матем. физика, 1999, т.118, №1.- с.95-104.
28. Baus M., Nejero C.F. Equilibrium Statistical Physics. –Springer. 2008. 364p.
29. Benik C. Ising type Antiferromagnets. – Springer. 2003. 120p.
30. Botirov G.I., Rozikov U.A. On q – component models on Cayley tree: the general case. Jour. Stat. Mech.: Theory and Exper. 2006. P10006, 8 pages.
31. Botirov G.I., Rozikov U.A. Potts model with competing interactions on the Cayley tree: The contour method. Theor. Math. Phys. 2007, V.153, No.1, p.1423–1433.
32. Bratteli O., Robinson D. Operator algebras and Quantum Statistical Mechanics. II. Berlin: Spriner-Verlag, 1981.
33. Ganikhodjaev N.N., Rozikov U.A. On Potts model with countable set of spin values on Cayley tree. Letters in Math. Phys. 2006, V.75, No. 1, p.99-109.
34. Ganikhodjaev N.N., Mukhamedov F.M., Rozikov U.A. Existence of phase transition for the Potts p -adic model on the set Z . Theor. Math. Phys. 2002, v.130. n.2, 500-507.
35. Mukhamedov F.M., Rozikov U.A. On inhomogeneous p – adic Potts model on a Cayley tree. Inf.Dim. Anal. Quant. Prob. Rel. Fields 2005. V.8, No.2, p.277-290.
36. Mukhamedov F.M., Rozikov U.A., J.F.F. Mendes. On phase transitions for p – adic Potts model with competing interactions on a Cayley tree. p – adic Math. Phys.; 2nd Inter. Conf. on p – adic Math.Phys., edited by A.Khrennikov, Z.Raki'c and I.Volovich. American Inst. of Phys. 2006, p.140-150.
37. Rozikov U.A. Description of periodic Gibbs measures of the Ising model on the Cayley tree. Russian Math. Surv. 2001, V.56, n.1, p.172-173.
38. Rozikov U.A. On countable - periodic Gibbs measures of the Ising model on the Cayley tree. Theor. Math. Phys. 2002, V.130, No.1, p.109-118.

39. Rozikov U.A. Representation of trees and its applications. Math. Notes. 2002, v.72, No.4, p.516-527.
40. Rozikov U.A., Nazarov Kh.A. Periodic Gibbs measures for the Ising model with competing interactions. Theor. and Math. Phys. 2003, V.135, No.3, p.881-888
41. Rozikov U.A. On q – component models on Cayley tree: contour method. Letters in Math. Phys. 2005, V.71, No. 1, p.27-38.
42. Rozikov U.A. Constructive description of ground states and Gibbs measures for Ising model with two-step interactions on Cayley tree. Jour. Stat .Phys. 2006. V.122, No.2, p.217-235.
43. Rozikov U.A. An example of one–dimensional phase transition. Sib. Adv. Math. 2006, V.16, No.2, p.121-125.
44. Rozikov U.A., Shoyusupov Sh.A. Gibbs measures for the SOS model with four states on a Cayley tree. Theor. Math. Phys. 2006, V.149, No.1, p.1312-1323.
45. Rozikov U.A., Suhov Yu.M. Gibbs measures for SOS model on a Cayley tree. Inf. Dim. Anal. Quant. Prob. Rel. Fields. 2006. V.9, No.3, p.471-488.
46. Rozikov U.A. A contour method on Cayley trees. Jour. Stat. Phys. 2008, V.130, No.2, p.801-813.
47. Ruelle D. Classical Statistical Mechanics of System of Particles. Helv. Phys. Acta, 1963, v.36, p.183.
48. Zachary, Countable state space Markov random fields and Markov chains on trees. Ann. Prob., 11: 894-903 (1983).
49. Рахматуллаев М.М. Розиков У.А. О слабо периодических гиббсовских мерах модели Изинга на дереве Кэли. // Доклады АН РУз, 2008. - №4. - с.12-15.
50. Розиков У.А., Рахматуллаев М.М. Описание слабо периодических мер Гиббса модели Изинга на дереве Кэли. // Теор. и матем. физика, 2008, т.156, №2.-с292-302.
51. Рахматуллаев М.М. Новые гиббсовские меры модели Изинга на дереве Кэли. // УзМЖ, 2009, №2-с144-152.

52. Рахматуллаев М.М., Расулова М.А. Изучение слабо периодических основных состояний для модели Поттса.// Matematik analizning dolzarb muammolari. Urganch, 2012, 9-10-noyabr. 49-50-betlar.
53. Расулова М.А. О слабо периодических основных состояниях для модели Поттса с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли.// Iqtidorli yoshlar ilmiy jurnali. Namangan, 2013, 1-son, 121-124-betlar.
54. Рахматуллаев М.М., Расулова М.А. Существование слабо периодических основных состояний для модели Поттса с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли.// Доклады АН РУз, Ташкент, 2013, №3. - с.10-13.
55. Рахматуллаев М.М., Расулова М.А. Слабо периодические основные состояния для модели Поттса с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли.// “Yosh matematiklarning yangi teoremalari-2013”. Namangan, 2013, 15-16-aprel.160-163-betlar.
56. Рахматуллаев М.М., Расулова М.А. Слабо периодические основные состояния для модели Поттса.// Тез. докл. Всероссийской конф. по матем. и мех. Томск, 2013, 2-4 октября. –с.239.
57. Рахматуллаев М. М. Слабо периодические меры Гиббса для модели Поттса на дереве Кэли .// Тез. докл. Всероссийской конф. по матем. и мех. Томск, 2013, 2-4 октября. –с.238.
58. Рахматуллаев М.М. ТМФ, 2013, Т.176, N3, с. 477-493.